ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 2025

Tadqiqot uz

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

MA'MUN UNIVERSITETI

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 5

## JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

doi® crossref

ТОШКЕНТ-2025

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5

**Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:**

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

**Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:**

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)**
**Axmedov Oybek Saporboyevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Galiyeva Margarita Rafaelovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Samandarova Lola Sultanovna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)**
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)**
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)**
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**TARIX FANLARI**
**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**
Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**
Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
**Goncharov Yuriy Mixaylovich**
Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya
**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
**Abdullayev Utkir Ismoilovich**
Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti
**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Timur Pulatovich**
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdalov Umidbek Matniyazovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**
Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti
**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

**PSIXOLOGIYA FANLARI**
**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Kryukova Tatyana Leonidovna**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

**IQTISODIYOT FANLARI**
**Ruzmetov Baxtiyar**
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma’mun Universiteti NTM
**Sherov Alisher Bakberganovich**
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), professor
Ma’mun Universiteti NTM
**Voronsova Yuliya Vladimirovna**
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
**Jabborov Umarbek Rustambekovich**
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Cho‘ponov San’at Otanazarovich**
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Niyazmetov Islambek Masharipovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma’mun Universiteti NTM

**PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**
**Sardor Sharifzoda O’razboy Tabib o’gli**
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
Ma’mun Universiteti NTM
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Adilov Zafar Yunusovich**
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM

**Slepko Yuriy Nikolayevich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti
**Xazova Svetlana Abduraxmanovna**
Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya
**Kalandarova Madina Baxadirovna**
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma’mun
Universiteti NTM

**TIBBIYOT FANLARI**
**Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma’mun Universiteti NTM
**Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Esamuratov Aybek Ibragimovich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Samandarova Barno Sultonovna**
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Tajiyeva Zebo Baxodirovna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Nazarova Maloxat Berdiboyevna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

**ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**
**Sultanov Samandar Maxmud o`g`li**
Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)
Ma’mun Universiteti NTM

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## FILOLOGIYA

**1. Yakubova Matluba Tajiboevna**
SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE’RIYATIDAGI BADIIY AHAMIYATI....8

**2. Rayxan Madaminova**
HOFIZ XORAZMIY “DEVON”IDAGI MA’NODOSH SO‘ZLAR TAHLILI....17

**3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul**
HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIIY TALQINI....25

**4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna**
ULUG‘BEK HAMDAM SHE’RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO‘LLANILISHI VA O‘ZIGA XOSLIGI....31

**5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna**
SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI....35

**6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna**
XORAZM XALQ QO‘SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA....40

**7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna**
INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS....44

**8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva**
O‘ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM....51

**9. Ихтиёр Бабаназаров**
XII АСР ХОРАЗМ ИЛМИЙ-АДАБИЙ МУҲИТИДА МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙНИНГ ТУТГАН ЎРНИ....56

**10. Rayxan Madaminova**
HOFIZ XORAZMIY “DEVON”IDAGI KO‘P MA’NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O‘RNI....62

**11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi**
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O‘RGANILISHI....69

**12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna**
OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO‘SHMA FE’LLAR SINONIMIYASI....73

**13. Xo‘jamurodova Iroda Anvar qizi**
SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR....78

## IQTISODIYOT

**1. Karimova Madina**
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH............................83
**2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna**
STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI........................91

## PEDAGOGIKA

**1. Davletov Erkaboy Yusubovich**
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.........................................................................................95

**2. Usanova Zulfiya Bozorovna**
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI....98

**3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna**
TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.......................................................102

## PSIXOLOGIYA

**1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura**
SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI...............................................107

## TARIX

**1. Babajanova Nilufar Alisherovna**
QUYI AMUDARYO TARIXIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIY TARAQQIYOT SAHIFASI.................................111

**2. Bekchanov Doniyor**
XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI...................................................................................115

**3. Tajiyeva Umida Rajabboevna**
O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA TABIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI...............................................................................................................119

**4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.............................................................123

**5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли**
ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА..............................................................................................................127

**6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna**
XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.............................................132

**7. Marimov Muzaffar Erkinovich**
XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR........................................................................................................137

**8. Bekchanov Doniyor**
AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.............................................141

**9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li**
XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIY CHEGARALARI MASALALARI...............................................................................145

**10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich**
QUR’ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.......149

**11. Misrbekova Makhliyo**
THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...155

**12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich**
YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.........................................................................161

**13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna**
QADIMGI MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI...................................................167

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

**Jumanyazova Muxabbat Xusinovna -**
Abu Rayhon Beruniny nomidagi
Urganch davlat universiteti prof.v.b.,
filologiya fanlari nomzodi
khiva1970@mail.ru

# XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670076

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Xorazm xalq qo'shiqlarida tez-tez uchraydigan *yap* so'zining etimologiyasi tahlil qilinadi. Muallif ushbu leksemaning tilshunoslikdagi turli qarashlarini bayon etib, uning qadimgi Xorazmiy tilga oid yoki umumturkiy *yap-* fe'l o'zagidan kelib chiqqanligiga oid ilmiy yondashuvlarni taqqoslab ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodida til va madaniyat munosabatlari, lingvomadaniy qatlamlar, shevalar va dialektlar orqali xalqning tarixiy-madaniy tafakkuri ifodalanganini ilmiy asosda yoritadi. Maqola xalq qo'shiqlari leksikasidagi tarixiylik, etimologik qatlamlar va madaniy merosning til vositasida saqlanishi jarayoniga ilmiy yondashuvni taklif qiladi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm xalq qo'shiqlari, yap so'zi, etimologiya, umumturkiy ildiz, Xorazmiy til, dialektologiya, lingvomadaniyat, xalq og'zaki ijodi, suv atamalari, tarixiy til qatlamlari.

---

**Jumanyazova Mukhabbat Khusinovna** –
Acting Professor at Urgench State University
named after Abu Rayhon Beruni,
Candidate of Philological Sciences

# ON THE ETYMOLOGY OF CERTAIN WORDS IN THE LEXICON OF KHOREZM FOLK SONGS

**ANNOTATION**

This article analyzes the etymology of the word *yap*, which frequently appears in Khorezm folk songs. The author presents various linguistic perspectives on this lexeme and compares scholarly approaches that trace its origin either to the ancient Khorezmian language or to the common Turkic verbal root *yap-* ("to cover, to build"). The article also explores the relationship between language and culture in oral folklore, highlighting how linguistic and cultural layers, dialects, and regional speech reflect a people's historical and cultural consciousness. It offers a scholarly approach to the preservation of cultural heritage through the lexicon of folk songs.

**Key words:** Khorezm folk songs, yap, etymology, common Turkic root, Khorezmian language, dialectology, linguistic culture, oral folklore, water terminology, historical language layers.

**Джуманиязова Мухаббат Хусиновна –**
исполняющая обязанности профессора
Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни,
кандидат филологических наук

# О ЭТИМОЛОГИИ ОТДЕЛЬНЫХ СЛОВ В ЛЕКСИКЕ ХОРЕЗМСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается этимология слова *yap*, часто встречающегося в хоразмских народных песнях. Автор излагает различные лингвистические взгляды на данную лексему и сравнивает научные подходы, связывающие её происхождение с древнехорезмийским языком или с общетюркской глагольной основой *yap-* («закрывать», «строить»). Кроме того, в статье научно освещаются связи между языком и культурой в устном народном творчестве, а также отражение историко-культурного сознания народа через диалекты, наречия и лингвокультурные слои. Работа предлагает научный подход к сохранению культурного наследия через лексику народных песен.

**Ключевые слова:** Хорезмские народные песни, слово *yap*, этимология, общетюркский корень, хорезмийский язык, диалектология, лингвокультура, устное народное творчество, водная терминология, исторические языковые слои.

---

## KIRISH VA DOLZARBLIGI

Dunyo tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlari tilidagi leksik birliklarning ma'no tabiatini ochib berish, ulardagi til va madaniyat munosabatlarini aniqlash va mavzuiy tasniflash masalalari tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan Xorazm vohasi folklori materiallaridagi serqatlam lingvomadaniy ko'lamning tarixiy asoslari, tavsifi va tasnifi borasidagi masalalarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, har bir xalq madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bugungi globallashuv davrida folklor tilini ilmiy tadqiq qilish orqali har bir millatning etnogenezisi, moddiy va ma'naviy madaniyati til bilan bog'liq tarzda o'zining ilmiy-nazariy asosini topishini isbotlamoqda. Xorazm xalq qo'shiqlari og'zaki ijod mahsuli sifatida xalq shevalari tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda manba sifatida xizmat qiladi.

## METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

O'zbek xalq qo'shiqlarining badiiy xususiyatlari, poetikasi va janriy belgilari folklorshunoslik yo'nalishida M.Alaviya, J.Qobulniyazov, U.Jumanazarov, S.Ro'zimboyev, N.Quronboyeva va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlarining lisoniy xususiyatlari tahlili esa F.Xayitova, M.Yoqubbekova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan [1].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorazm folklori, xususan, xalq qo'shiqlarida yap so'zi ko'p uchraydi: Eshikingni aldi *yap*dir, *Yap*dan su(v) alg'an savapdir [2]. Mazkur qo'shiq satrlaridagi *yap* so'zi etimologiyasi juda munozarali. Uni xorazmiy tilida aniqlik artikli i [3] va suv ma'nosidagi *ap* birikuvidan tashkil topgan deb talqin qilish mumkin. Xorazmiy tilida *i* aniqlik artikli fors tildagi noaniqlik "yo"si (*mehribone, dilsintone*dagi kabi) ingliz tilidagi noaniqlik artikli *a* bilan bir umumiy manbaga [4] borib taqaladi. Suv ma'nosidagi *ap* proto-hind-evropa (Proto-Indo-European) manbaga ega. Olimlar bu til uchun "suv" ma'nosidagi *$h_2$ep-* (yoki soddaroq yozuvda *ap-*) o'zagini tiklashadi. Bu o'zak ko'pincha harakatdagi suv, daryo kabi ma'nolarni anglatgan. Proto-hind-eroniy (Proto-Indo-Iranian) yo'nalishda esa hind-eron tillarining umumiy ajdodida bu o'zak **hāp-* shaklini olgan (proto-hind-evropa *$h_2$ tovushi ko'pincha **p* oldidan hind-eroniy tillarda *ā* tovushiga aylangan yoki undoshni cho'zgan). Proto-eroniy (Proto-Iranian) – eroniy tillar uchun bobotilda bu so'z **āp-* shaklida (muannas ot) mavjud bo'lgan. Qadimgi eroniy tillardan avestoviyda *ap-* (suv), qadimgi fors tilida *api-* (qo'shma so'zlar tarkibida "suv"), o'rta fors tili (pahlaviy): *p̄ (āb)* shaklida yozilgan va talaffuz qilingan. Yangi fors tili (mumtoz va hozirgi): آب *āb /ob* shakliga kelgan. Eroniy tillarda so'z o'rtasi

yoki oxiridagi /p/ tovushining jaranglilashib /b/ yoki /v/ ga oʻtishi xos hodisadir. Bu oʻzakning qadimiyligini boshqa hind-evropa tillaridagi qarindosh soʻzlar ham tasdiqlaydi. Masalan, hind guruhi: sanskrit *áp-* – suv, “Veda” larda *ā́pas* – koʻplikda, “suvlar”). Boshqa eroniy tillar: pushtu *obə* – suv, kurdcha *av* – suv, balujiy *āp* – suv. Boshqa hind-evropa guruhlari: litvacha *ùpė* – daryo), eski irland tili *ab* –daryo, lotincha *amnis* – daryo (< **abnis*dan boʻlishi mumkin), eski pruss tili *ape* –daryo.

*Ob* soʻzining *porloqlik, yaltirash, obroʻ, qadr-qimmat* kabi ma’nolari ham bor. Bu ma’nolar katta ehtimol bilan yangi fors tilining oʻzida rivojlangan ikkilamchi ma’nolardir. Ularning paydo boʻlishiga suvning (ayniqsa, toza suv, marvarid) yiltiroqligi, jilosi bilan bogʻliq assotsiatsiya (koʻchma ma’no) sabab boʻlishi mumkin. *Obroʻ* (Xorazm shevalarida *abray*) soʻzidagi *ob* aslida shu suv ma’nosidagi *ob* bilan bogʻliq (ob + roʻ(y) – yuzning suvi, ya’ni yuzning nuri, ifodasi, qadri). F.Abdullayev quyidagi misolni keltiradi: Yap boʻyida oʻtiribdi sevyan yor, sevyan yora salomimni olib bor [5]. Bu soʻzning etimologiyasi borasida bir necha nufuzli olimlar uning qadimgi Xorazm tilidan oʻzlashganligini taxmin qilishadi. Jumladan, Y.Bensing turkiy tillardagi, xususan Xorazm shevasidagi /jɑp/ shaklini qadimgi Xorazm tilidagi *yʾb* (kanal/ariq) soʻziga bogʻlaydi. Uning fikricha, yuqorida ta’kidlangan, xorazmiycha *yʾb* shakli muzakkar jinsiga oid *ʾy* artikli va *ʾb* (“suv”) soʻzining birikuvidan hosil boʻlgan [6]. Bunda asos qilib olingan *ʾb* (“suv”) soʻzi oʻz navbatida umumeroniy **āp-* (“suv, oqim, daryo”) oʻzagiga borib taqaladi [7]. Ta’kidlash joizki, bu soʻz turkman tilida (ýap /jɑp/) va Chorjoʻy shevasida (/jɑp/) ham aynan shu ma’noda qoʻllaniladi. Biroq adabiy oʻzbek tilida "yop" soʻzi koʻproq dialektal birlik sifatida qaraladi [8].

Shunga qaramay, uning Xorazm vohasi uchun qadimgi substrat qatlamga oidligini bir qancha olimlar ta’kidlashgan. F. Abdullayev bu soʻzni ehtimoliy xorazmiy soʻzlar qatoriga kiritgan [5.141]. Taniqli xorazmshunos V.A. Livshits esa bu leksemani Xorazm hududida saqlanib qolgan xorazmiy leksikasiga yaqqol misol sifatida keltirgan [9].

Ikkinchi tomondan *yap* soʻzi substrat emas, turkiy soʻz sifatdida qaraladi. Turkiy tilshunoslikda *yap* soʻzining etimologiyasi ancha puxta oʻrganilgan va umum qabul qilingan ilmiy qarash mavjud. *Yap* koʻplab turkiy tillarda ariq, kanal, yopiq kanal/quvur, toʻgʻon ma’nolarida uchraydi. Masalan, turkman tili: *ýap* (ariq, kanal), qadimgi turkiy til: *yap-* (yopmoq, berkitmoq); *yapıɣ* (yopiq, qoplama); turk tili: *yapmak* (qilmoq, yasamoq, qurmoq); *yapı* (inshoot, bino), qozoq tili: *jap* (yopmoq); *jappa* (toʻgʻon), qirgʻiz tili: *jap* (yopmoq); *japma* (toʻgʻon, kichik ariq). Nufuzli turkologlarning etimologik lugʻatlarida (J.Klouson, M.Ryasyanen, E.Sevortyan va boshqalar) *yap/yop* (ariq) soʻzi umumturkiy **yap-* fe’l oʻzagidan kelib chiqqani aytiladi. Bu oʻzakning asosiy ma’nolari: 1) **yopmoq, berkitmoq, qoplamoq**: Bundan kelib chiqib, yap/yop dastlab usti yopiq kanal/quvur yoki qirgʻoqlari berkitilgan, chegaralangan suv yoʻli ma’nosini anglatgan boʻlishi mumkin; 2) **yasamoq, qurmoq, inshoot qilmoq**: Turk tilidagi yapmak (qurmoq), yapı (inshoot) soʻzlari ham shu oʻzakka bogʻliq. Bundan kelib chiqsa, *yap* yasalgan, qurilgan inshoot (suv uchun) ma’nosini bildirgan boʻlishi mumkin.

J.Klouson *yap-* (to cover, shut), *yapıɣ* (covered), *yapma* (covering) maqolalarida *yap* shaklini aynan *irrigation channel* (sugʻorish kanali) ma’nosida ham keltiradi va uni *yap-* (yopmoq) fe’li bilan bogʻlaydi [10]. M.Ryasyanen ham bu soʻzni *jap-* fe’liga bogʻlaydi [11]. E.V.Sevortyan tomonida *jap/jop/jep* shakllari tahlil qilingan va ularning kelib chiqishi *jap-* (yopmoq, qurmoq) fe’liga bogʻlangan[12].

**XULOSA**

Demak, ishonchli etimologik lugʻatlar va turkiy tillar qiyosiy tahliliga koʻra, *yap* soʻzi umumturkiy **yap-* (yopmoq, berkitmoq, qoplamoq, yasamoq, qurmoq) fe’l oʻzagidan kelib chiqqan. Xorazm xalq qoʻshiqlarida koʻpalab uchraydigan bu soʻz Xorazm shevasiga ham, boshqa turkiy tillarga ham shu oʻzakdan meros boʻlib oʻtgan. Ma’nosi katta ehtimol bilan “chegaralangan/qurilgan suv yoʻli> ariq/kanal” shaklida rivojlangan.

**Iqtiboslar/References/Сноски**


1. Alaviya M. Oʻzbek xalq qoʻshiqlari.- Toshkent: OʻzFan, 1959; Жуманазаров У. Узбекские народные исторические песни: автореф.дис…канд.филол.наук.- Ташкент, 1982; Roʻzimboyev S. Xorazm vohasi oʻzbek xalq qoʻshiqlarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari: Filol.fan.nomz. …dis.avtoref. – Toshkent, 1971; Xaitova F.B. Nikoh toʻyi qoʻshiqlarining lisoniy talqini: Filol.fan.nomz. …dis.avtoref. – Tashkent, 1998. – 24 b.; Jumaniyozova M.X. Xorazm xalq qoʻshiqlari leksikasi: Filol.fan.nomz. …dis.avtoref. – Toshkent, 1999. – 24 b.; Yoqubbekova M. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarining lingvopoetik xususiyatlari: Fil. fan. d-ri ...dis. – Toshkent, 2005.

2. Xorazm ogʻzaki ijodi durdonalari.- Urgach, 1993.

3. Фрейман А.А. Артикль в хорезмийском языке. — Советское востоковедение. 1948, № 5.

4. Abdurahmonov Gʻ., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1984.

5. Abdullayev F.A. Oʻzbek tilining Xorazm shevalari – Tashkent: Fan, 1961.

6. Benzing J. Chwaresmischer Wortindex. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1983.

7. Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. – М.: Восточная литература, 2000. – Том I. – С. 311.

8. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Oltinchi jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2022. – B. 222.

9. Лившиц В.А. Иранские языки народов Средней Азии // Народы Средней Азии и Казахстана. – Том. I / С.П. Толстов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1962. – С. 140.

10. Clauson, G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford, 1972.

11. Räsänen, M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türksprachen. Helsinki, 1969.

12. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков.- Москва, 1974-2003.

ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

# ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 5

# JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000